17 Mart / 2024 YIL / 4 – SON

# INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI

**M.O.Yodgorova**
*BuxMTI assistenti*
**Sh.U.Baxriddinova**
*118-22 MSM guruh talabasi*
**Sh.Sh.Oʻktamova**
*120-23 MSM guruh talabasi*

Davlatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta oʻzlashtirgan, sogʻlom e'tiqodli, raqobatlasha oladigan, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalariga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan

«Ta'lim toʻgʻrisida»gi Qonunida insoniy fazilatlarni rivojlantirishning muhim yoʻnalishi sifatida yuksak ma'naviyatli, raqobatbardosh va yuksak kasbiy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilandi.

Har bir davlat oʻz fuqarolarida zamon talablariga xos sifatlar va jamiyat maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi. Barqaror taraqqiyot va yuksaklik sari intilayotgan davlatlarning tajribasi bilan tanishish orqali yoshlarda fuqarolik tuygʻusini tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik hissini shakllantirish, oʻz-oʻzini anglash, bagʻrikenglik, adolatparvarlik kabi sifatlarni qaror toptirish, fuqarolik pozisiyasini zamon ehtiyojlari va jamiyat manfaatlariga moslashtirish asosida rivojlantirish zarur, degan xulosaga kelindi. Yuksak zakovat, chuqur bilimli iqtidor egalarini tayyorlashda, tabiiyki, ta'lim tizimi oldingi oʻringa chiqadi. Ana shu nuqtai nazardan yoshlarni oʻqitish va tarbiyalash jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mohiyatan oʻqituvchi va ta'lim oluvchi oʻrtasidagi hamkorlikni dasturlashdan iborat boʻlgan zamonaviy ta'lim texnologiya shunday ijtimoiy fenomenki, unda zamonaviy shart-sharoitlarda ta'limiy maqsadlarga erishishning aniq yoʻl-yoʻriqlari koʻrsatilgan va ushbu maqsadlarni amaga oshirishni ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari: ta'limni demoktatlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi, ijodkorlikni rivojlantirish, shaxsga yoʻnaltirilganlik, hamkorlik, faollashtirish, dasturlash, aniq maqsadlar qoʻyish, jadallashtirish, tanlash imkoniyatining mavjudligi.

Ta'limni demokratlashtirish oʻquv jarayonini tashkil etishda oʻqituvchi va ta'lim oluvchining teng huquqligini ta'minlashdir. Shuningdek, bunda oʻz fikrini himoya etish, munozarada faol ishtirok etish tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish kabilar hisobga olinadi.

Ulardan unumli, oʻz oʻrnida foydalanish XXI asrning quyidagi muhim ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi:

- Toʻgʻri qarorlar qabul qila olish;

- Zaruriy hayotiy koʻnikmalarni egallash;
- Yangi gʻoyalarni yaratish;
- Axborotlarni qabul qilish va ajrata olish;
- Oʻz xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi;
- Shaxsiy imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish;
- Sogʻlom fikr yuritish;
- Muloqot va hamkorlik qilish;
- Moslashuvchanlik va koʻnikuvchanlik;
- Toʻgʻrilik va ijobiy xulqni namoyon qilish;
- Shaxsiy gʻoya va tashabbuslarni namoyon qilish;
- Atrofdagilarning manfaatini nazarda tutib mas'uliyat bilan ish tutish;
- Madaniyatlararo koʻnikmalar;
- Peshqadamlilik va mas'uliyat;
- Taym-menejment, vaqtdan samarali foydalanish va berilgan vaqt doirasida ish hajmini bajarishga ulgurish;
- Noaniq, mavhum va oʻzgaruvchan vaziyatlarda samarali ishlash;
- Murakkab qarorlarni tanlash va qabul qilish;

Ta'lim jarayonlari orqali inson kapitali, ya'ni bilim darajasi, malakasini shakllantirish mumkin. Ayni paytda taraqqiyot va rivojlanishga turtki boʻladigan ana shu yuksak bilim, malaka, zakovatidan faqat ezgu yoʻlda foydalanishda insoniy qadriyatlar oʻta muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamolova, M. X., Kamalova, M. X., Bozorova, S. N., & qizi Ubaydulloyeva, S. L. (2023). XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ MUTAFFAKKIRLARINING PEDAGOGIK GʻOYALARI. SCHOLAR, 1(31), 151-155.
2. Ёдгорова, М. О. (2018). Современное инженерное образование и инновации в подготовке инженеров. Молодой ученый, (9), 147-149.
3. Ёдгорова, М. О. (2012). Современные требования к преподавателю профессионального колледжа. Молодой ученый, (1-2), 86-87.
4. Ёдгорова, М. О. (2018). Информационные технологии в учебном процессе на смену традиционной методике. Молодой ученый, (9), 149-152.
5. Baxtiyorovna, D. M. (2022). Food safety management. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 8, 64-67.
6. Bakhtiyarovna, D. M., Shakhidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Investigation Of The Effect Of Plant Extracts On The Rheological Properties Of Wheat Dough. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(09), 41-47.
7. Glushenkova, A. I., Sagdullaev, S. S., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Oil cake of sesamiumAcad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of

plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (p. 202).